

INGLIZ RITSARLIK ROMANLARIDA BADIY OBRAZ YARATISH VOSITALARI.**Durdona Boychayeva**

NamDChTI tadqiqotchisi.

tel:(998) 99-917-74-45. dboychayeva@mail.ru<https://doi.org/10.5281/zenodo.12785879>

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz ritsarlik romanlarida qahramonlar obrazini yaratishning badiiy vositalari ko'rsatilgan. Qahramonlar obrazi turli badiiy vositalar, jumladan, yorqin tasvir, allegoriya va ramziylik yordamida yaratilgan. "Qirol Horn"da qahramon Horn sevgi va hurmat uchun hamma narsani xavf ostiga qo'yishga tayyor bo'lgan mard va jasur yosh risar sifatida tasvirlangan.

"Arturning o'limi"da qahramon qirol Artur risarlik va sharaf g'oyalarini o'zida mujassam etgan dono va olijanob hukmdor sifatida ko'rsatilgan.

Umuman olganda, qirol Xorn va Artur mualliflari tasvir, allegoriya va ramziy ma'lumotlardan badiiy foydalanish orqali jasorat, sharaf va adolatni o'zida mujassam etgan qahramonlarning kuchli obrazlari yaratilishi misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: badiiy, o'lim, ritsarlik, King Horn, allegoriya, simbolizm, janr, qahramonlik, ritsar, obraz.

ARTISTIC IMAGE CREATION TOOLS IN ENGLISH NOVELS OF CHIVALRY.

Abstract. The article demonstrates literary characteristics of artistic features of chivalric novels, the image of heroes is created through various artistic means, including vivid description, allegory, and symbolism. In "King Horn," the hero Horn is depicted as a virtuous and brave young knight who is willing to risk everything for love and honor.

In "The Death of Arthur," the hero King Arthur is portrayed as a wise and noble ruler who embodies the ideals of chivalry and honor.

Overall, through the artistic use of description, allegory, and symbolism, the authors of "King Horn" and "The Death of Arthur" effectively create a powerful image of heroes who embody the virtues of courage, honor, and righteousness.

Key words: artistic, death, chivalric, King Horn, allegory, symbolism, genre, heroic, knight, honor.

**СРЕДСТВА СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА В АНГЛИЙСКИХ
РЫЦАРСТВЕННЫХ РОМАНАХ.**

Аннотация. Статья демонстрирует литературные характеристики художественных особенностей рыцарских романов, образ героев создается с помощью различных художественных средств, включая яркое описание, аллегорию и символизм. В

"Короле Хорне" герой Хорн изображен как доблестный и храбрый молодой рыцарь, готовый рискнуть всем ради любви и чести.

В "Смерти Артура" герой король Артур показан как мудрый и благородный правитель, воплощающий идеалы рыцарства и чести.

В целом, с помощью художественного использования описания, аллегории и символизма авторы "Короля Хорна" и "Смерти Артура" эффективно создают мощный образ героев, воплощающих доблесть, честь и праведность.

Ключевые слова: художественный, смерть, рыцарство, Король Горн, аллегория, символика, жанр, героический, рыцарь, честь.

Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siyomosini ifodalaydi.

Badiiy obrazni yaratar ekan, muallif ijtimoiy va shaxsiy tajribaga, poetik an'anaga, til vositalarining ekspressiv-ifodali imkoniyatlariga va eng avvalo so'zning potensial imkoniyatlariga tayanadi. V.A.Kuxarenkong ta'kidlashicha, "obraz - bu yagona shaxs orqali shaxslar umumlashmasini, aniq bir narsa orqali mavhumni, hissiy-vizual, moddiy narsa orqali mavhumni tasvirlashdir".¹

P. G. Pustovoit obraz yaratish masalasiga to'xtalar ekanman shunday yozadi: «Haqiqiy rassom insonni tasvirlaganda uning faqat tashqi qiyofasini qayta yaratish bilan cheklanib qolmay, balki undan ham uzoqroqqa boradi: u shaxsning ma'lum bir tarixiy davrdagi ma'lum bir ijtimoiy guruhga xos bo'lgan va eng yorqin namoyon bo'lgan xususiyatlari va fazilatlari bilan qiziqadi.

Mana shu obraz yaratishdir".² Adabiy qahramon obrazini yaratishning badiiy vositalariga portret, qahramon nutqi, bevosita muallif tavsifi, landshaft va interyer kabi adabiy unsurlar kiradi.

Ammo bu vositalar orasida birinchi o'rin portretga beriladi, chunki qahramonning tashqi ko'rinishi uning yoshi, ijtimoiy mavqei, didi, odatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar haqida ko'p narsani aytishi mumkin. Quyida XIV asrda Tomas Melori tomonidan yozilgan "Arturning o'limi" hamda XIII asrga mansub, muallifi noma'lum bo'lgan "QiroXorn" risarlik romanlarida qahramonlar portretining yaratilishi masalasini ko'rib chiqsak. Tomas Melori qirol Arturning

¹ Кухаренко В.А. Интерпретация текста: учебное пособие для студентов пед. ин-тов по спец. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988. – С. 37.

² Пустовойт, П.Г. Созвездие неповторимых. Мастерство русских классиков / П.Г. Пустовойт. – Изд. МГУ, Наука, 2006. – С. 61.

tavsifini bevosita keltirmaydi. Biz Arturning shaxsiyatini uning asar davomidagi faoliyati, xattaharakatlari, his-tuyg'ularini ifodalovchi jumlar va yoki uni o'rab olgan risarlar bilan munosabati orqali ko'rishimiz mumkin. O'sha davrga oid turli epik asarlar, risarlik romanlaridan bilamizki, Artur bilan Dumaloq Stol atrofida birlashgan risarlar faqat adolatli maqsad uchun kurashgan va risarlik jasorati bilan qolganlarga o'rnak bo'lgan. Portret tavsiflari butun asar davomida bir necha marta kichik hajmda namoyon bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, asar muallifi e'tiborini o'z qahramonlarining tashqi ko'rinishiga qaratmagan, uni qahramonlarining harakatlari, boshqa qahramonlar bilan munosabatlari va ichki kechinmalari qiziqtirgan. Portret xususiyatlariga misollar keltiramiz:

*Yonder he goeth, said a knight, he **with the black face**; he is the marvellest knight that is now living, for he destroyeth many good knights, for he goeth invisible.*

Tarjimasi:

Mana u kelyapti, - dedi ritsar, - qora yuzli; u hozir yashayotgan eng ajoyib ritsar, va u ko'p yaxshi ritsarlarni yo'q qiladi, chunki u ko'rinmas bo'lib keladi.

Ehtimol, muallif bu ritsarni boshqalardan ajratib, nafaqat uning tengi yo'qligini, balki terisining rangi ham boshqalardan ajralib turishini ta'kidlamoqchi bo'lgandir.

Keyin favvora yonida o'tirgan, uchovlon ritsarni kutayotgan uch ayolning tasvirini uchratamiz:

*And then they rode to them, and either saluted other, and **the eldest had a garland of gold about her head, and she was three score winter of age or more, and her hair was white under the garland. The second damosel was of thirty winter of age, with a circlet of gold about her head. The third damosel was but fifteen year of age, and a garland of flowers about her head.***

Tarjimasi:

Keyin ular otlarida ularning oldiga borib, salom berishda, va ularning eng kattasining boshida oltin toj bor edi, ko'rinishidan oltmish yoshda, hatto undan ham kattaroq va toj ostidagi sochlari oqargan edi. Ikkinchi qiz o'ttiz yoshda edi va boshida oltin xalqa bor edi. Uchinchi qiz esa endigina o'n besh yoshda, boshida esa gulchambar bor.

Muallif bu uch kanizani ularning har biri, qaysidir mezon, sifat va xislatiga ko'ra, uchta olijanob ritsarlar ser Marhalt, ser Gavayn yoki ser Yvenga mos kelishini ko'rsatish uchun tasvirlaydi.

Ritsarlar nafaqat kuchli va ko'rkam, balki aqlli ham bo'lgan, buni ser Balinning so'zlari tasdiqlaydi:

*Well, said Balin, since I shall thereto I am ready, but travelling men are oft weary and their horses too, but **though my horse be weary my heart is not weary, I would be fain there my death should be.***

Tarjimasi:

- Xo'sh, - dedi Balin, - agar kerak bo'lsa, men tayyorman; to'g'ri, yo'lovchilar ham, ularning otlari ham horg'in bo'ladi, lekin mening otim charchagan bo'lsa-da, yuragim charchamaydi. va agar bu mening o'limim bo'lsa, men buni mamnuniyat bilan qabul qilaman.

Fidoiylik, burchga sadoqat barcha ritsarlarga xos bo'lgan va muallif buni o'z romanidagi ritsarlardan birining so'zlari orqali ta'kidlaydi.

*Sir Tristram de Liones, I require thee, as thou art a noble knight, and the best knight that ever I found, that thou wilt slay me out, for I would not live to be made lord of all the earth, **for I have liefer die with worship than live with shame...***

Tarjimasi:

- Lionlik ser Tristram, sizdan o'tinib so'rayman, siz olijanob ritsar va men ko'rgan eng yaxshi jangchisiz, meni o'ldiring, ular meni butun er yuzining hukmdori qilib qo'yishsa ham yashashni xohlamayman. Zero, sharmandalikda yashaganimdan ko'ra, bu erda sharaf bilan o'lganim yaxshi.

Ritsarlar qirol saroyidami, janglar oldidanmi yoki xonimlar bilan uchrashgandami, qachon bo'lmasin sharmandalikdan qo'rqishadi. Ritsarlar o'z dushmanlarini zavq yoki miqdor uchun emas, balki, birinchi navbatda, o'z hukmdorining manfaatlarini himoya qilish, begunoh va nochorlarni himoya qilish, shuningdek, davlat o'z jangchilari bilan faxrlanishi mumkinligini ko'rsatish uchun o'ldirishgan. Lekin, nafaqat bosh qahramonning nutqi uni ma'lum bir tomondan tavsiflashi mumkin, balki boshqa personajlarning nutqi ham bosh qahramonni yangicha ko'rishga yordam beradi yoki aksincha, u haqidagi taassurotlarni kuchaytirishi mumkin. Bunga Arturni qirol sifatida ko'rmoqchi bo'lgan lordlar va aholining nutqi misol bo'la oladi:

We will have Arthur unto our king, we will put him no more in delay, for we all see that it is God's will that he shall be our king, and who that holdeth against it, we will slay him.

Tarjimasi:

- Artur bizning qirolimiz bo'lishini xohlaymiz! Biz ularning qarorni kechiktirishlariga yo'l qo'ymaymiz, chunki hamma ko'rdi: uning bizning qirol bo'lishi Xudoning irodasi. Kim bunga qarshi bo'lsa, o'ldiramiz.

Shunday qilib, qahramonlarning his-tuyg'ulari, ularning mohiyatini ochib berish va qahramonning hissiy holatni "ko'rsatish" uchun muallif o'z qahramoni ruhiy holatiga qarab ma'lum bir landshaft (o'rmon, dengiz, o'tloq, daryo) bilan o'rab olishini aniqladik.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ritsarlik romanlarning mualliflari ko'pincha qahramonlarning ichki qiyofasini yoki tashqi ko'rinishini tasvirlashga murojaat qilmaydilar, aksincha, ko'p hollarda ular faoliyatidagi harakatlarini, nutqlarini va his-tuyg'ularini ifodalovchi "faktlarni bayon qiladilar" va tasvirleydilar. Ular uchun ritsarlarining jasorati va buyukligi, ayollarning go'zalligi va nazokati, qirol va shahzodalarning kuch-qudrati, dushmanlarning zaif va qo'rqqiligini o'z harakatlari va so'zlari bilan ko'rsatish muhimroqdir.

REFERENCES

1. Кухаренко В.А. Интерпретация текста: учебное пособие для студентов пед. ин-тов по спец. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988. – С. 37.
2. Пустовойт, П.Г. Созвездие неповторимых. Мастерство русских классиков / П.Г. Пустовойт. – Изд. МГУ, Наука, 2006. – С. 61.